

*Buriyeva Shaxnoza Inat qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti Boshlang'ich
ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi
+998886784664
shaxnozam@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek ma'rifikatparvari, o'qituvchi va jurnalist Abdulla Avloniyning bosma nashr va matbuot sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Avloniy XX asr boshlarida "Shuhrat" va "Turon" kabi gazetalarga asos solib, jamiyatni ilm-ma'rifikat sari yetaklashga harakat qilgan. U matbuot orqali milliy ong va ma'rifikatni targ'ib qilib, o'z davri ziyorilari orasida muhim o'rinni egallagan. Ushbu maqolada Avloniyning matbuot orqali olib borgan islohotlari va ularning ta'lif sohasiga ta'siri yoritiladi.

Kirish so'zlar: Avloniy, matbuot, jurnalistika, nashr, jadidchilik, pedagog, o'zbek adabiyoti, madaniyat, ta'lif tizimi, uyg'onish, jamiyat

Matbuot-millat ko'zgusidir

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon har bir soha rivojida ulkan istiqbolli ishlar amalga oshirilib, bu o'z navbatida O'zbekistonimizning taraqqiyetib, gullab yashnashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barcha sohalar qatori matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Matbuot chinakam hayot ko'zgusi, "to'rtinchchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbek matbuoti va bosma nashrlarining shakllanishida o'zining betakror hissasini qo'shgan ziyorilar orasida Abdulla Avloniy alohida o'rinni tutadi. U nafaqat ma'rifikatparvar adib va pedagog sifatida, balki milliy matbuot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan jurnalist, muharrir va noshir sifatida ham tarixda nom qoldirgan. Avloniy o'z davrining ijtimoiy va madaniy muammolarini hal qilish, xalqni savodxonlikka, bilimga da'vat etish yo'lida qator gazeta va jurnallar tashkil etib, ularning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

XX asr boshlarida Turkiston jadidlari milliy matbuotning asosini qo'ygan bo'lsa, Avloniy bu yo'nalishda yetakchi shaxslardan biri bo'ldi. Uning sa'y-harakatlari bilan nashr qilingan "Shuhrat", "Turon", "O'qituvchi" kabi gazeta va jurnallar xalqni ma'rifikat sari yo'naltirish, milliy ongni uyg'otish, zamонавиyl илм-fan yutuqlaridan xabardor qilish kabi muhim vazifalarni bajargan. Avloniy nashr etgan gazetalarda

faqatgina yangiliklar emas, balki o'zbek adabiyoti, madaniyati, ta'lif tizimi hamda jamiyatdagi muammolar haqida ham keng qamrovli maqolalar e'lon qilinib, bu nashrlar o'z davrida katta o'quvchilar auditoriyasiga ega bo'lgan. Avloniy matbuot faoliyatida mustamlaka tuzumi sharoitida xalqning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ma'rifat va taraqqiyot yo'lida islohotlarni targ'ib qilish asosiy maqsad edi. Uning asarlarida matbuotning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida chuqur mulohazalar bildirilgan bo'lib, u matbuotni millat ko'zgusi deb bilgan. U tomonidan tashkil etilgan matbuot organlari o'zbek jurnalistikasi rivojida muhim bosqich bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Abdulla Avloniy 1906 yildan she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. 1906 yil "Taraqqiy", 1907 yil o'z uyida (Toshkentda) "Shuhrat" gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908 yil yashirin ravishda "Osiyo" gazetasini nashr etdi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars bergan. 1909 yil "Jamiyat xayriya" tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shundan keyin Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan (1912). Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblari yozib nashr qildirgan [masalan, "Birinchi muallim", 1911; "Ikkinci muallim", 1912; "Turkiy guliston yoxud axloq", 1913; 4 juz (qism)li "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami, 1909–15; "Maktab gulistoni", 1915; "Mardikorlar ashulasi", 1917 va boshqalar. Munavvarqori, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Shokirjon Rahimi va boshqa ma'rifatparlar bilan birgalikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) kitob nashr qilish shirkatlarini tashkil etgan. 1913 yil "Turkiston" nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1917 yil "Turon" gazetasini nashr qilgan. Avloniy "Ishtirokiyun" gazetasi tashkilotchisi va muharriri. 1919–20-yillarda Sho'ro hukumatining Afg'onistondagi siyosiy vakili va konsuli. "Kasabachilik harakati" jurnali bosh muharriri (1921). Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlari (inproslar)da mudir (1923–24), Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi (1924–29). 1930–34 yillarda O'rta Osiyo universiteti til va adabiyot kafedrasi mudiri, professori. Shu davrda o'zbek maktablarining 7-sinf uchun "Adabiyot xrestomatiyasi" tuzib, nashr ettirgan (1933). Avloniyning she'riy to'plamlari, dramatik asarlari nashr etilgan. U tanqidiy va ilmiy maqolalar, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan. Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn etilgan. Toshkentdagi ko'chalardan biri, Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va



TARJUMAN UZ

malakasini oshirish markaziy instituti Avloniy nomi bilan ataladi. Avloniy yodgorlik muzeyi ochilgan.

Abdulla Avloniy o‘z faoliyatini nafaqat o‘qituvchi va adib sifatida, balki jurnalist va noshir sifatida ham olib borgan. U 1913-yilda “Shuhrat” gazetasini nashr eta boshlagan bo‘lib, bu nashr Turkistondagi ilg‘or fikrli ziylolar uchun muhim axborot manbai edi. Ushbu gazeta orqali u xalqni ma’rifatga da’vat etgan, ta’lim-tarbiya masalalariga jiddiy e’tibor qaratgan. Shuningdek, gazeta sahifalarida milliy uyg‘onish, mustamlaka siyosatining salbiy oqibatlari va o‘zbek xalqi oldida turgan dolzab muammolar yoritilgan.

Avloniy matbuotni xalqning ongini uyg‘otish vositasi deb bilgan va shu sababdan 1917-yilda “Turon” gazetasini tashkil etgan. Ushbu gazeta faqatgina yangiliklarni yoritish bilan cheklanmay, balki o‘zbek milliy adabiyoti va san’atining rivojlanishiga ham xizmat qilgan. Uning sahifalarida ilg‘or jadid ziylolarining maqolalari, adabiy va publitsistik asarlari chop etilgan. Avloniy gazeta orqali nafaqat ilm-ma’rifatni targ‘ib qilgan, balki yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham harakat qilgan. Bundan tashqari, Avloniy o‘qituvchilar uchun maxsus nashr – “O‘qituvchi” jurnalini tashkil etgan. Bu jurnal pedagoglar uchun yo‘riqnomalar sifatida xizmat qilgan bo‘lib, unda zamonaviy ta’lim metodikasi, bolalar tarbiyasi, dars berish usullari bo‘yicha muhim maqolalar e’lon qilingan. Avloniy jurnal orqali ta’lim tizimini isloq qilish, uni ilm-fan yutuqlari asosida rivojlantirish zarurligini ilgari surgan.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining faol a’zolaridan biri sifatida matbuot orqali jamiyatni uyg‘otish va isloq qilish tarafidori edi. U o‘z maqolalarida Turkistonda yangi tipdagi maktablar ochish, eski madrasalarning kamchiliklarini tahlil qilish, qizlarni o‘qitish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan. Avloniyning matbuot sohasidagi xizmatlari jadid gazetalari va jurnallarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Jadid matbuoti orqali u jamiyatni savodxonlikka chaqirish, eski qarashlardan voz kechish va milliy ongni shakllantirishga harakat qilgan. Uning gazeta va jurnallarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari keng targ‘ib qilingan bo‘lib, bu nashrlar mustamlaka siyosati sharoitida xalqning o‘zligini anglashiga xizmat qilgan.

Abdulla Avloniy o‘zining noshirlik faoliyatida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelgan. Uning gazetalarini



moliyalashtirish, sensor nazorati, mustamlakachi amaldorlarning tazyiqlari – bularning barchasi uning ishiga to’sqinlik qilgan. Biroq shunga qaramay, Avloniy o‘z yo‘lidan qaytmagan va matbuotni xalqni ma’rifatga yetaklashning muhim vositasi sifatida ko‘rishda davom etgan. Sovet hokimiyati o‘rnatalgach, milliy matbuotga bo‘lgan qattiq nazorat Avloniyning ham matbuotdagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1920-yillarga kelib, jadid matbuoti bosqichma-bosqich yopildi va milliy nashrlar yo‘q qilindi. Ammo Avloniyning matbuotga qo‘shtgan hissasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Abdulla Avloniy o‘zbek matbuoti rivojiga ulkan hissa qo‘shtgan ma’rifatparvarlardan biridir. U matbuotni millat ko‘zgusi, xalqning ilm olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan vosita sifatida ko‘rgan va shu yo‘lda fidokorona mehnat qilgan. Uning tashabbusi bilan chop etilgan gazeta va jurnallar o‘z davrida xalqni ma’rifat sari yetaklagan, bugungi kunda esa o‘zbek matbuoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Avloniyning matbuot sohasidagi mehnatlari hozirgi jurnalistikamiz rivojiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikrlari, qarashlari va matbuotga bo‘lgan yondashuvi bugungi kunda ham ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust .
2. Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи tabrige,” Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Тошкент "Маънавият" 2006.
4. Mamasoli Jumaboyev . O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent - "O‘ZBEKISTON" – 2003
5. Ulug‘bek Dolimov."Milliy uyg‘onish pedagogikasi" «NOSHIR» ТОШКЕНТ – 2012
6. N. Abdulahatov, O.Abulakirova “Aliomalar to‘g‘risidagi asotirlar” Farg‘ona 2012 y.
7. H.T.Omonovva boshqalar “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” . Darslik Toshkent - 2007.
8. M.Axmedjonov, B.Xo‘jayev, Z.Hasanova. “Pedagogik mahorat”. -Buxoro, 2008.
9. O.Suvonov, S.Astanova. “Pedagogik mahorat”. -Guliston, 2016